

## TIL O'QITISH VA O'RGANISHDA GLOBAL ISTIQBOLLARNI O'RGANISH

S. Mamadiyorova<sup>1</sup>

Annotatsiya:

Ushbu maqolada XXI asrda tilni o'qitish va o'rganishda til o'qitish metodikasi, zamonaviy texnologiyalar yordamida tilni oson va tez o'zlashtirish, turli tillarni o'rganishda qo'llanilayotgan yangicha uslubdagi metod turlari va ushbu metodlardan samarali foydalanish to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: chet tili, metod, "zig-zag" metodi, metodika, to'g'ri metod, audiovisual, audiolingual, innovatsion texnologiya.

doi: <https://doi.org/10.2024/kz09yg21>

### **Kirish**

Bugungi kundagi zamonaviy ko'rinishga ega bo'lgan ta'limga taraqqiyoti yangicha yo'nalish innovatsion pedagogikani shakillantirdi. Innovatsion – inglizcha "yangilikni kiritish (tarqatish)" ma'nolarini anglatadi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E.Rodjers tomonidan ishlab chiqilgan. Ilmiy yo'nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari o'zaro farqalanadi. "Yangilik"- bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya ma'nosini anglatadi. "Innovatsiya" - bu ta'limga, ma'lum bosqichlari bo'yicha rivojlanadigan jarayon hisoblanadi. Chet tilini o'qitish pedagogligini kasb sifatida tanlaganlar uchun ushbu tillarni o'qitish nazariyasidan mukammal xabardor bo'lish kabi vazifalar yuklanadi. O'qitish ilmini metodika fani yoritadi, "metodike" so'zi yunoncha bo'lib, "biror ishni maqsadga muvofiq bajarish usullari majmuyi" ma'nosini bildiradi. Pedagogik muloqotda tez-tez uchrab turadigan „metodika" terminining uchta ma'nosи bor. Birinchisi, o'quv predmetini bildiradi (mas. ertaga birinchi dars metodika"), ikkinchisi, ta'limga metodik usullari yig'indisini (mas. "o'qituvchimiz" - ning metodikasi mena yoqadi") va uchinchisi, ta'limga naza - riyasi va maxsus fan (mas. "bu qo'llanmada metodika yaxshi yoritilibdi") ni ifodalaydi. Bu bobda "metodika" so'zining uchinchi terminologik ma'nosи haqida fikr yuritiladi. Chet til o'qitish metodikasi, professor Mixail Vasilyevich Lyaxovitskiy ta'riflashicha, ta'limga maqsadlari, mazmuni, vositalari, shuningdek, chet til yordamida ta'limga tarbiya berish usullarini tadqiq etuvchi fandir. Metodika fani, asosan, quyidagi uch yirik mavzuni o'rga- tadi: chet til o'rgatishning nazariy muammolari, nutq faoliyatini turlarini o'rgatish va chet til o'rgatishning tashkiliy masalalari. Boshqacha qilib aytganda, metodika chet til o'rgatish ilmi bo'lib, "chet til"ni o'quv predmeti sifatida belgilaydi, muallim va o'quvchi faoliyatini o'rganadi va boshqa fanlar yutuqlarini o'zlashtirish va o'z qonuniyatlarini ishlab chiqish yo'llarini tadqiq etadi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya**

Hozirgi globallashuv davrida tilni o`rganish va o`rgatishga talab kuchaygani sababli, chet tili professor o`qituvchi va olimlari juda ko`plab yangi innovatsion

<sup>1</sup> Mamadiyorova Sevinch, Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi

pedagogik ko`nikmalar, texnologiyalar va yangidan yangi metodik qo`llanmalar ishlab chiqishdilar va ishlab chiqishmoqda va shuningdek chet el ta`lim tizimidan ham namunalar olib ta`lim sohasida tatbiq etishmoqda va bu esa tilni oson va tez o`zlashtirishini ta`minlab bermoqda. Chet til o'qitish metodi – chet tili o`rgatishning amaliy, umumta`limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga erishuvini ta`minlovchi muallim va o`quvchi faoliyatining majmuasidir.

Innovatsion texnologiya – ta`lim samaradorligini oshiruvchi omillardan foydalanish, turli pedagogik jarayonlarni loyihalash va amalda qo`llash orqali bilim egallahni takomillashtirish usullaridir. Uning asosiy maqsadi ta`lim jarayonida o`qituvchi va bilim oluvchi faoliyatiga yangilik, o`zgartirishlar kiritish bo`lib, interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol metodlar ta`lim jarayonida qatnashayotgan har bir bilim oluvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishga asoslanadi. Bu usullardan foydalanganda bilim olish qiziqarli mashg`ulotga aylanadi. Interfaol usullar qo`llanilganda mustaqil ishlash ko`nikma va malakasi rivojlanadi. Bahslar – o`quv guruhlarini ikki guruhgaga bo`lgan holda biror mavzu bo`yicha o`zaro bahs – fikr almashinuvi tarzida o`tkaziladi. Muzyorarta`lim beruvchi va ta`lim oluvchilar orasida to`sinqi yo`qotishga qaratilgan. "Zig – Zag" metodi – o`quvchilar bilan ishlash, mavzuni tezkor va puxta o`zlashtirishga xizmat qiladi; o`quvchilarda jamoa yoki guruh bo`lib ishlash ko`nikmasi; vaqt tejaladi. "Videotopishmoq" metodi – so`nggi yillarda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari yordamida ta`lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e`tabor qaratilmoqda, o`qituvchilar oldida ta`lim jarayonida turli axborot vositalaridan o`rinli va maqsadga muvofiq foydalanish turibdi.

To`g`ri metod nomining kelib chiqishiga asosiy sabab shuki, to`g`ri metodda o`qitish chog`ida ona tilini chetlab o`tib chet til so`zi bilan predmet orasida bevosita assotsiatsiya, ya`ni fikran bog`lanish o`rnatishga urinib ko`rilgan. Chet til grammatikasini o`rgatishda ham huddi shunday metodik yo`l tutilgan; grammatik ma`no bilan shakl o`rtasida bevosita bog`lanish hosil qilmoqchi bo`lishgan. To`g`ri metodning dunyoga kelish sababini chet tillarni amaliy o`rganish maqsadidan qidirish joizdir. O`tgan asrning oxirlariga kelib, Garbiy Evropa mamlakatlari va Amerika Qo`shma Shtatlarida chet til o`qitishni isloh qilish natijasida ushbu metod kashf etilgan. Keyinchalik bu metod -Osiyo, Afrika va boshqa yurtlarga ham tarqalgan. Ona tili ishtirokisiz chet tilini o`rgatishga intilishlarni to`g`ri metod, induktiv metod, tabiiy metod kabi atamalar bilan yuritila boshlangan. Ushbu metodlardan ko`zlanadigan asosiy maqsad chet tilni amaliy jihatdan o`rgatishdir. Ona tilini o`rganish shart -sharoitlari bu metodda o`zgarishsiz qabul qilina bergan. To`g`ri metodning zamонавиyo ko`rinishlaridan ikkitasi - audiolingual va audiovizual metodlari ko`p tarqalgan. Audiolingual metodning asoschilari (mashxur Amerika metodistlari Chariz Carpenter Friz va Robert Lado) fikrlariga binoan chet til amaliy va ta`limiy maqsadda o`rganiladi. Til materiallardan chet til jumlalari (nutq namunalari)ni tanlash va o`rgatishga muhim o`rin b eriladi. Nutq faoliyati turlarini o`rganish tartibi quydagicha kechadi: tinglab tushunish, gapirish, - o`qish - yozuv. Og`zaki nutq chet tilda aloqa vositasi sifatida, yozma nutq esa og`zaki nutq materiali asosida o`rgatiladi. Muallimlar audiolingual metodning bir qancha ijobjiy xossalalarini maktab tajribasidan biladilar. Chunonchi, nutq namunalarining til o`rgatish birligi darajasiga qo`lanishi, og`zaki nutqning ilgarilashi, og`zaki nutqning materialida o`qish va yozuvning o`rgatilishi V-VII sinflarda tegishli o`zgarishlar bilan qabul qilingan. Audiolingual metodning ayrim qonuniyatlarini bizning

sharoitga to'g'ri k elmasligi mактаб darsliklariga hisobga olingan. Masalan: nutq namunalari ong ishtirokisiz va hech qanday qoidalar berilmasdan о'ргатиш undagi g'ayri ilmiy ko'rsatmalardir. Aktiv va passiv til materialini farqlagan holda ularning o'zlashtirishiga, befarq qarashadi. Bu ham noto'g'ri metodik yo'l-yo'riqdir. Audiolingual metoddan qator jihatlari bilan farq qiladigan audiovizual metod nomoyondalari (P.Guberina, P.Rivan) metodik ko'rsatmalariga binoan leksik materialni an'analariga alohida e'tibor berilgan.

### ***Muhokama va natijalar***

Chet til o'qitish metodikasi didaktika bilan uyg'un, o'zaro bog'langan holda rivojlanib kelgan. Barcha o'quv fanlarining o'qitish nazariyalari didaktika faniga asoslanishi, undan ilmiy ozuqa olishi shubhasiz barchamizga ma'lum. Chet til o'qitish ham didaktikaga asoslanadi. Didaktika ta'limining umumiylazariyasi, metodika muayyan o"quv predmetini o'qitish ilmi, lingvodidaktika tillarni o'qitish umumiylazariyasi, lingvometodika aniq bir tilni o'qitish ilmi sifatida qaraladi. "Metod" atamasi bilim, malaka, ko'nikmani egallash, o'quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish va bilish imkoniyatlarini yaratish yo'lidagi o'qituvchi-pedagog va talabaning ish usuli ma'nolarini bildiradi. Ushbu tushuncha son -sanoqsiz ta'riflarga ega. Chet tillar o'qitilishida metodlarni tatbiq etish uzoq davrlardan boshlangan, prinsiplar esa nisbatan yangiroq metodik atamalardir. Tarixan metodlar to'rt guruhga birlashtirilib, ularning nomlariga "tarjima", "to'g'ri", "qiyosiy", "aralash" deb atash qabul qilingan. Metodlar tarixi atoqli metodist prof. I.V.Raxmanov tomonidan chuqur o'rganilgan. Tarjima metodi asosan ikki ko'rinishda bo'lib, grammatika-tarjima va matn-tarjima metodlari nomi bilan yuritiladi. Grammatika-tarjima metodi nuqtayi nazaridan chet til umumta'limiy maqsadda o'rganilgan. Grammatik mashqlar til o'rganuvchining mantiqiy tafakkurini o"stirish maqsadida bajarilgan. Grammatik bilimlarni bayon etish ta'limning asosiy maqsadi deb qabul qilingan. Bu metodning asosiy prinsiplari quyidagilar: 1. Til o'rganish yozma nutqqa asoslangan. 2. O'rganish predmeti qilib grammatika olingan, leksika ham unga tobe ravishda tanlangan. Grammatik mashqlar bajarish asosiy ish usuli bo'lgan. 3. Oldin, grammatik qoida yod olingan, so'ng esa qoidalar asosida gaplar tuzish tavsiya qilingan. 4. Grammatik shakl va so'zlarning ma'nosini so'zma-so'z tarjima vositasida ochib berilgan. 5. So'zma-so'z tarjima va quruq yodlash yo'li bilan til materiali o'zlashtirilgan. 6. So'zlarni kontekstdan tashqarida, yakka yodlash bilan chegaralanilgan.

### ***Xulosa***

Chet til o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o'rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamoniyy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o'rgatish samarali natija beradi. Chet til o'rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo'lishni taqozo etadi. Metodika va texnologiyalar chet til o'rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Darsni tashkil qilishda metodika fanining turli usullari mavjud. Chet til o'qitish metodikasida keng qo'llaniladigan metodlar: kommunikativ didaktika metodi, madaniyatlararo muloqotni tashkil qilish metodi va mashqni tashkil qilish metodi hisoblanadi. Uchala metod bir biri bilanchambarchas bog'liq va bir-birini to'ldiradi. Metodika fani didaktika fani bilan bog'liq bo'lganligi sababli, chet til o'rganish mobaynida kommunikativlikka asoslaniladi va kommunikativ didaktika metodi yuzaga keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

- [1]. Jalolov, J. *Foreign Language Teaching Methodology* (2012)
- [2]. Chet tili o'qitish metodikasi, Sh.Alimov, A.Ismoilov, Andijon
- [3]. Ingliz tili o'qitish metodikasi, J.Jalolov, Oqituuvchi, Toshkent
- [4]. XXI asrda ilm-fan taraqqiyotining rivojlanish istiqbollari va ularda innovatsiyalarning tutgan o'rni mavzusidagi respublika ilmiy 4-onlayn konferensiyasi materiallari, Toshkent, Tadqiqot, 2019
- [5]. Tilshunoslikdagi zamonaviy yo`nalishlar:muammo va yechimlar, Andijon, Onlayn Xalqaro Ilmiy – Amaliy Konferensiya, 2020 <http://conference.adu.uz>
- [6]. Chet tili o'qitish metodikasida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, Namangan, 2018
- [7]. Innovations in learning technologies for English language teaching, Gary Motteram, British Council, 2013